

BUXORO ARKINING BUNYOD ETILISHI

Qaxxarova Aziza Ravshan qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: t.f.d professor Taniyeva Guldona Mamanovnaa

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ark qal'asining bunyod etilish tarixi, uning qadimiy Buxoro shahri hayotidagi o'rni hamda me'moriy xususiyatlari yoritiladi. Maqolada Arkning paydo bo'lishi haqidagi tarixiy rivoyatlar, xususan Siyovush bilan bog'liq qarashlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari hamda zamonaviy tarixiy tadqiqotlar asosida Ark qal'asining shakllanish bosqichlari o'rganiladi. Tadqiqot davomida Arkning Buxoro amirligi davridagi siyosiy va mudofaa markazi sifatidagi ahamiyati ham ko'rsatib beriladi. Mazkur maqola tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tayyorlangan bo'lib, Buxoro Arkining O'rta Osiyo me'morchiligi va davlatchilik tarixidagi o'rnini ochib berishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Buxoro tarixi, Ark qal'asi, Siyovush afsonasi, qadimgi me'morchilik, mudofaa inshootlari, O'rta Osiyo davlatchiligi, tarixiy manbalar, arxeologik tadqiqotlar, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, Abulqosim Firdavsiy, Shohnoma, qal'a qurilishi, tarix va madaniyat.*

Аннотация: *В данной статье освещаются история строительства крепости Арк, её роль в жизни древнего города Бухары, а также архитектурные особенности. В статье анализируются исторические предания о возникновении Арка, в частности взгляды, связанные с Сиявушем. Кроме того, на основе произведения История Бухары Абу Бакра Мухаммада ибн Джафара Наршахи, произведения Шахнаме Абулькасима Фирдоуси, а также современных исторических исследований изучаются этапы формирования крепости Арк. В ходе исследования также показано значение Арка как политического и оборонительного центра в период Бухарского эмирата. Данная статья подготовлена на основе исторических источников и научной литературы и служит раскрытию места Бухарского Арка в истории архитектуры и государственности Средней Азии.*

Ключевые слова: *история Бухары, крепость Арк, легенда о Сиявуше, древняя архитектура, оборонительные сооружения, государственность Средней Азии, исторические источники, археологические исследования, Абу Бакр Мухаммад ибн Джафар Наршахи, Абулькасим Фирдоуси, Шахнаме, строительство крепости, история и культура.*

Abstract: *This article highlights the history of the construction of the Ark Fortress, its role in the life of the ancient city of Bukhara, and its architectural features. The article analyzes historical legends about the origin of the Ark, particularly the views associated with*

Siyavush. In addition, the stages of the formation of the Ark Fortress are studied on the basis of History of Bukhara by Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshakhi, Shahnameh by Abulqasim Ferdowsi, and modern historical research. The study also demonstrates the importance of the Ark as a political and defensive center during the period of the Bukhara Emirate. This article is prepared on the basis of historical sources and scientific literature and aims to reveal the place of the Bukhara Ark in the history of Central Asian architecture and statehood.

Keywords: *Bukhara history, Ark Fortress, Siyavush legend, ancient architecture, defensive structures, Central Asian statehood, historical sources, archaeological research, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshakhi, Abulqasim Ferdowsi, Shahnameh, fortress construction, history and culture.*

Buxoro Arki Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va mashhur me'moriy obidalardan biri hisoblanadi. U nafaqat hukmdorlar qarorgohi, balki siyosiy, harbiy va madaniy markaz sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Tarixiy manbalarda Arkning bunyod etilishi haqida turli rivoyat va ma'lumotlar uchraydi. Ayniqsa, Buxoro tarixi asarida Arkning qurilishi Siyovush nomi bilan bog'lanadi. Rivoyatlarga ko'ra, Siyovush Buxoroga kelib, bu yerda o'zidan yodgorlik qoldirish maqsadida Ark hisorini bino qilgan. Olimlarning fikricha, Ark miloddan avvalgi IV–III asrlarda dastlabki qal'a sifatida paydo bo'lgan. Asrlar davomida Ark bir necha bor vayron qilingan va qayta tiklangan. Shunga qaramay, u Buxoro shahrining ramzi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Ushbu mavzu orqali Buxoro Arkning bunyod etilishi, tarixiy rivojlanishi hamda u bilan bog'liq afsona va tarixiy voqealar haqida ma'lumot beriladi.

Abu Bakr Muhammad An Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida shunday yozilgan." Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyibotlari haqida to'xtab, shunday deydi: Abu-l Hasan Nishopuriy-ning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro kuhandizi, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayhun daryosidan o'tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi.

Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o'ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingda «Darvozayi g'uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar. Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deb ataydilar. Bu gaplar bulaming hozir unutilganidan ortiqroq vaqt o'tdi. Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko'ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba'zilar esa Afrosiyob bino qilgan

deganlar. (So'ng) bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronalicha qoladi. Biz aytib o'tgan xotinning eri, Tafshodaning otasi bo'lgan Bidun Buxorxudot taxtga o'tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o'rnatdi. Bu ma'lumotlar Buxoro xalqining qadimiy e'tiqodlari, urf-odatlar va Siyovush obraziga bo'lgan hurmatini aks ettiradi[1.34-35].

Bugungi kunda bu rivoyat ilmiy jihatdan afsonaviy manba sifatida qaralsa-da, u Buxoro Arking juda qadimiy tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu hikoya orqali qadimda Buxoro hududida davlat boshqaruvi, diniy qarashlar va madaniy an'analar shakllanganini bilish mumkin.

Shu sababli, Buxoro Arki nafaqat harbiy qal'a, balki xalq xotirasi va tarixiy-madaniy merosning muhim ramzi hisoblanadi.

Shu xat bitilgan temir tariximonning zamonigacha o'sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far va Abu-l-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketib, qaytadan bino qilgan edi, yana buzildi, u necha marta bino qilmasin yana vayron bo'lavergan. Hukamolarni yig'ib ulardan maslahat so'radilar. Ular bu qasrni osmondagi yetti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag'lubiyatga uchragan emas, aksincha hamisha g'alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida — biror podshoh ham uning ichida o'lmagan; podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan — bu qasr bino qilganidan to vayron bo'lgunicha shunday bo'lib kelgan.

Bu hisorning ikkita darvozasi bor, biri sharq tomonida, biri g'arb tomonida; sharq tomondagisini «Dari furik» deb, g'arb tomondagisini «Dari Registon» deb ataydilartarjimonning davrida keyingisini «Dari alaffurushon» deb ataganlar. Hisorning o'rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to'g'ri yo'l bo'lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turarjoylari bo'lib, zindon, podsholik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo'lgan. Haram saroyi va xazina (ham) shu hisorda bo'lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketdi. Bundan bir necha yillari Arslonxon uni yangilashga buyurdi va o'ziga turarjoy qilib oldi hamda hisorni (ma'lum) shartlarga muvofiq idora qilib turish uchun ulug' bir amirni kutvol qilib tayinladi. Bu hisor xalq ko'zida zo'r e'tiborga ega edi.

Besh yuz o'ttiz to'rtinchi yil oylaridan birida (28 avgust 1139 — 16 avgust 1140) Xorazmshoh Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjarning farmoni bilan Buxoroning volisi edi. Xorazmshoh uni qo'lga olib o'ldirdi va hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronaligicha qoldi. Besh yuz o'ttiz oltinchi yili (6 avgust 1141 — 26 iyul 1142) G'urxon tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegin o'sha yilning iyulida hisorni obodon qilishga buyurdi va uni o'zi uchun turarjoy qilib oldi. Hisor ilgarigidan ham

yaxshiroq bo'ldi. Besh yuz o'ttiz sakkizinchi yili ramazon oyida (8 mart — 6 aprel 1144) g'uz askarlari Buxoroga yetib keldi. Aynudavla, Qarochabek va Shahob vazirlar hisorga qamaldilar, ko'p jang va qiyinchiliklardan keyin g'uz askarlari hisorni olib, Shaxob vazirni o'ldirdilar va hisorni vayron qildilar, hisor shu vayronligicha qoldi. 560 yili (18- noyabr 1164-yil -6 noyabr 1165). Buxoro shahrining aylanasi devor qurmoqchi bo'ldilar, devorning tagini pishiq g'ishtdan ishlash zarur bo'ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq gishtdan edi, uni buzib olib Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo'la vayron boldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadi. 604- yili Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash Buxoroni olib, hisorni qaytadan tikladi, xitoyliklar yengildilar. 616- yili esa tatar lashkari keldi, ularning amiri Chingizxon edi. Ular qal'ani darvozasida 12 kun jang qilib, uni oldilar va vayron qildilar [1.36-37].

Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Buxoro Arkining bunyod etilishi Siyovush nomi bilan bog'lanadi. Asarda aytilishicha, Siyovush Eron shohi Kaykovusning o'g'li bo'lib, Turon yurtiga keladi va Afrosiyobning qizi Farangisga uylanadi. Keyinchalik Siyovush Buxoro hududida o'ziga qarorgoh va mustahkam qal'a qurdiradi. Rivoyatlarga ko'ra, aynan shu qal'a keyinchalik Buxoro Arki deb atalgan.

“Shohnoma”da Siyovush dono, adolatli va jasur shahzoda sifatida tasvirlanadi. Uning Buxoroda bog'lar, saroylar va mudofaa devorlarini qurdirgani haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Biroq Afrosiyob Siyovushdan shubhalanib, uni qatl ettiradi. Shundan keyin Siyovush xalq orasida begunoh qahramon sifatida e'zozlangan. Rivoyatlarga ko'ra, Buxoro aholisi uzoq vaqt Siyovush xotirasiga motam marosimlari o'tkazgan [2.110-120].

Ole Olufsen daniyalik sayyoh, harbiy shifokor va Markaziy Osiyo bo'yicha tadqiqotlar olib borgan etnograf-olim hisoblanadi. U ham Buxoro arki haqida o'zining “Buxoro amiri va uning mamlakati” asarida Ark Fortressni Buxoro amirining asosiy qarorgohi sifatida tasvirlaydi. Ark ichidagi saroy hayoti, amaldorlar faoliyati va harbiy tizim haqida yozadi. Buxoroni Sharqdagi yopiq, lekin juda kuchli siyosiy markaz deb baholaydi [3.30-90].

Lord Curzon — ingliz siyosatchisi, tarixchi va Hindiston vitse-qirol bo'lgan. U Sharq mamlakatlarini, jumladan Markaziy Osiyoni ham o'rgangan. U o'zining “Russia in Central Asia” asarida Ark Fortressni Buxoro amirining asosiy siyosiy va harbiy markazi sifatida tilga oladi. Buxoroni o'sha davrda “yarim mustaqil, lekin juda muhim sharqiy davlat” deb baholaydi [4.100].

Xulosa qilib aytganda, Ark Fortress qadimdan O'rta Osiyoning eng muhim siyosiy, harbiy va madaniy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Uni o'rganishda Sharq va G'arb olimlarining asarlari bir-birini to'ldiradi. Sharq manbalarida, xususan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy va Shohnomada Arkning kelib chiqishi afsonaviy Siyovush bilan bog'lanib, uning qadimiyligi ta'kidlanadi. G'arb sayyohlari va olimlari, jumladan Ole Olufsen va Lord Curzon esa Arkni Buxoro amirligining siyosiy markazi va mustahkam qal'a sifatida tasvirlagan. Shunday qilib, turli davr va manbalardagi ma'lumotlar Arkning nafaqat tarixiy obida, balki butun bir davlat boshqaruvi tizimi markazi bo'lganini ko'rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. — Toshkent: Fan, 1966.
2. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. — Dushanbe: Adib, 1990.
3. Ole Olufsen. The Emir of Bukhara and His Country. — London, 1911.
4. Lord Curzon. Russia in Central Asia. — London, 1889.